

**MALAKA OSHIRISH ISTAGIDAGI SHAXSLARGA “KASB
VAUCHERI” BERILADI**

Mamatqulov Nurmuhammad

Bekobod shahar adliya bo‘limi bosh maslahatchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi 126-sonli Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oida chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoniga asosan. 2025-yil 1-noyabrdan malakasini oshirish va kasbga qayta tayyorlanish istagidagi shaxslarga qo‘shimcha ta‘lim olish uchun “**kasb vaucheri**” berish tartibi joriy etiladi.

“Kasb vaucheri” ssuda sifatida beriladi.

Shaxs o‘qishni tugatib sertifikat olgach, ishga joylashganidan so‘ng ssudani 2 yil davomida Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga qaytaradi.

Quyidagi shaxslarga kasb-hunar kurslarida ta‘lim olish davrida Jamg‘arma hisobidan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 1 baravari miqdorida stipendiya to‘lanadi:

nogironligi bo‘lgan shaxslarga;

3 oydan ortiq davom etadigan kurslarda ta‘lim olayotgan Kambag‘al oilalar reestridagi oilalar a‘zolariga;

doimiy yashash joyidan boshqa hududga qatnab ta‘lim olayotgan shaxslarga.

Bunda ishsizlik nafaqasi to‘lanishi davrida o‘quvchilarga stipendiya tayinlanmaydi.